

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK:338.45..658(575.1)

XIDIROV TEMUR QAHRAMON O‘G‘LI

**SUTNI QAYTA ISHLASH SANOATI KORXONALARINI
KLASTER TIZIMI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: Iqtisod fanlari nomzodi, dots.I.S.Xotamov

TDIU
kutubxonasi

1277

Toshkent – 2023

002
X-45

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| KIRISH | 3 |
| I BOB. Qayta ishlash sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari | 12 |
| 1.1. Qayta ishlash sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslari..... | 12 |
| 1.2. Qayta ishlash sanoati korxonalarini rivojlantirishda klaster tizimidan foydalanishning ilmiy yondashuvlari..... | 23 |
| 1.3. Sutni qayta ishlash sanoati korxonalarida klaster tizimidan foydalanishning xorijiy davlatlar tajribasi..... | 41 |
| I bob bo'yicha xulosalar..... | 53 |
| II BOB. Sutni qayta ishlash sanoati korxonalarining iqtisodiy-ishlab chiqarish faoliyatini kompleks tahlili | 55 |
| 2.1. Sutni qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va sotish holatining tahlili..... | 55 |
| 2.2. Sutni qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholash tizimi..... | 67 |
| 2.3. Sutni qayta ishlash korxonalarida mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, asosiy fondalar ko'rsatkichlarining tahlili..... | 83 |
| II bob bo'yicha xulosalar..... | 99 |
| III BOB. Qayta ishlash sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari | 102 |
| 3.1. Klaster tizimi asosida sutni qayta ishlash korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari..... | 102 |
| 3.2. Qayta ishlash sanoati korxonalarida klasterlarni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari..... | 112 |
| 3.3. "Baxt imkon rivoj chorvasi" qayta ishlash korxonasining rivojlantirish istiqbollari..... | 122 |
| III bob bo'yicha xulosalar..... | 128 |
| XULOSA VA TAKLIFLAR | 130 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI | 133 |

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholi turmush darajasi sifatini oshirish, ratsional iste'mol tarkibini rivojlantirish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda ishlab chiqarishni klaster tizimiga ko'ra rivojlantirishga muhim vosita (mexanizm) sifatida qaralmoqda. Jahon Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning ma'lumotlariga ko'ra «FAO oziq-ovqat narxlari indeksi 2021 yilda oxirgi 10 yillikdagi eng yuqori darajaga yetgan»¹. Bugungi kunda dunyo miqyosida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'moli tobora ortib borishi sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini klaster tizimi asosida qayta ishlash va mahsulot hajmini oshirishning yangi imkoniyatlarini yanada takomillashtirishga zarurat ortib bormoqda.

Jahonda klaster tizimi sharoitida sutni qayta ishlash sanoatining metodologik-uslubiy asoslarini innovatsion va raqamli texnologiyalar hamda turli iqtisodiy sharoitlarda uyg'un va optimal rivojlantirishga ko'ra takomillashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda. Bu borada qishloq xo'jaligi sohasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash hajmini innovatsion texnologiyalar asosida yanada kengaytirish, iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik muhitga ko'ra ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash, qayta ishlash sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda qayta ishlash sanoati, jumladan sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish borasida ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, kadrlarning munosib malakasini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanishning tashkiliy-ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish kabi yo'nalishlarda islohotlar amalga oshirilmoqda. «Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, sanoatning

¹ <https://www.fao.org/worldfoodsituation/foodpricesindex/ru>